



№1

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



**ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026**

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali
23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №049864





MUNDARIJA				
1.	Рабимқулов Шерзод Муртозаевич	Исломий банк хизматлари дарчаси шароитида инвестиция лойиҳаларини молиялаштириш имкониятлари	7	
2.	Муқимов Шерали Ахмадали ўғли	Яшил саноат сиёсатини юритишнинг Хитой тажрибаси: методологик асослар ва ўрнакли жиҳатлар	15	
3.	Elmirzayev Samariddin Eshquvvatovich, Shokhistakhon Akhmedova	Opportunities and challenges in developing the corporate bond market in Uzbekistan	31	
4.	Kholikov Khamidulla	Financing the future: how Uzbekistan's green and sdg bonds are powering sustainable economic transformation	38	
5.	Жумаев Самариддин Зиядуллаевич	Кимё саноати корхоналарида молиявий таъминотни шакллантиришда ўз маблағлар манбаларининг аҳамияти	49	
6.	Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich	Oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini iqtisodiyotda tutgan o'rni va ularni bank kreditlari hisobiga moliyalashtirish ahamiyati	59	
7.	Abdullayev Nuriddin Isom o'g'li	Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan investitsion faoliyatni takomillashtirish yo'llari	67	
8.	Shamiyev Shohruh Shakar o'g'li	Tijorat banklariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo'llari	75	
9.	Раджабов Умурзак Аблакулович	Айрим ривожланган мамлакатлар солиқ тизимининг ўзига хусусиятлари	83	
10.	Raximov Eshmurod Normuradovich	O'zbekistonda barqaror va inkluziv iqtisodiy o'sishga erishishda makroiqtisodiy mexanizmlardan foydalanish	91	
11.	Xomitov Komiljon Zoitovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ko'char mulk qiymatini baholash xususiyatlari	98	
12.	Narzullayeva Xilola Abdukomilovna	O'zbekistonda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish omillari	106	
13.	Касимова Гуляр Ахматовна, Абдуқосимова Гулноза Хилолитдиновна	Ўзбекистон саноат корхоналари барқарор ривожланишида фискал омилларнинг аҳамияти	115	
14.	Xolmurodov Maxmatkarim o'g'li	Xalqaro audit tashkilotlari rivojlanish tarixi va ularning global iqtisodiyotdagi o'rni	120	
15.	Nazarova Shohista Tolmas qizi	Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida fintech texnologiyalari asosida moliyaviy inkluzivlik va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari	126	
16.	Тоғаев Салим Собирович, Халбеков Камариддин Абдухалилович	Худудларнинг инвестицион жозибадорлигини баҳолашга оид илмий-назарий қарашлар	131	
17.	Юлдашева Надира Викторовна	От контроля к доверию: новые подходы в государственных закупках	138	
18.	Маматкулов Авазбек Ахмадалиевич	Ички аудитни амалга оширишнинг хорижий илғор тажрибалари ва уларнинг фойдаланиш йўллари	146	
19.	Qosimova Nilufarxon Chinberdiyevna	Operatsiyon faoliyatda pul oqimlari	156	
20.	Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	Bank ekotizimlari innovatsion xizmatlar majmui	161	
21.	Mirbabayev Farrux Athamovich	Mahalla boshqaruv tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	167	
22.	Oramov Jaxongir Jurayevich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligini ekonometrik modellashirishning nazariy asoslari	172	
23.	Sattorov Shohruh	Qashqadaryo mintaqasida investitsion muhitni shakllantirishning ahamiyati	177	
24.	Sherqo'ziyev Mamadiyor, Xudayarov Mahmasaid Maxmarajabovich, Abdinazarov Akbar Baxriddin o'g'li	Faradey effektini yorug'lik nurlanishining modulyasiyalangan qutblanishini qo'llagan holda o'lchash	182	
25.	Boyev Bekzodjon Jo'raqul o'g'li	Blokcheyn texnologiyalari asosida aksiyalarni birlamchi joylashtirish imkoniyatlari	191	
26.	Primova Dilafruz To'liqinovna	Tijorat banklari tomonidan moliyaviy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish	201	
27.	Alimov Baxodir Batirovich	Sug'urta kompaniyalarning buxgalteri balans ko'rsatkichlarining gorizontal va vertikal tahlili	209	
28.	Хашимов Абдукомил Рисбекович, Фарангиз Мадримова Ихтиёр кизи	Суғурта фаолиятининг аҳоли турмуш даражасига таъсирини моделлаштиришнинг ҳозирги амалий ҳолати	218	





29.	Xotamov Alisher Xotamjon o'g'li, Botirjonova Bonu Baxtiyor qizi	O'zbekistondagi jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarni moliyaviy hisobotlarini auditdan o'tkazishning samaradorligi	228
30.	Tashpulatov Giёс Toхирович	Рақамлаштириш жараёнида бизнес қийматини баҳолашда катта маълумотлар таҳлили ва сунъий интеллект инструментларидан фойдаланиш	236
31.	Raimjanova Madina Asrarovna	Barriers and opportunities shaping the funding of green projects across developing nations	244
32.	Sherkuziyev Mamadiyar, To'xtasinova Ra'noxon G'anijonovna	Sharlashuv jarayonida yashil maydonlar qisqarishini aniqlash va bashoratlash uchun axborot olish tizimi: chuqur o'qitish modeli	249
33.	Nuraliyeva Barnoxon Quдрat qizi	Tovar-moddiy zaxiralar tarkibidagi inert gazlar va inert materiallar hisobini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari	258
34.	Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich	Moliyaviy mustaqil bo'lgan oliy ta'lim muassasalari moliyaviy ta'minotini mustahkamlash xususiyatlari	265
35.	Maxmasaidova Sayyodxon Ubaydulla qizi	Sug'urta faoliyatini baholashning ekonometrik modellashirishning uslubiy jihatlari	270
36.	Холмуродов Джавохир Бахтиёр оглы	Внедрение цифровых технологий в денежно-кредитную политику как основа обеспечения финансовой стабильности	276
37.	Sharapova Mashxura Azadovna, Tugalov Elshod Zafar o'g'li	O'zbekiston moliya bozorida islomiy fintech platformalari orqali aqlli shartnomalar (smart contracts) va blokcheyn tizimini joriy etishning istiqbollari	282
38.	Yovkochev Sherzod Shukhratovich	External debt issues and risk management in cooperation with international financial institutions	291
39.	Akobirova Nodira Najmiddin qizi	Tadbirkorlik subyektlarining kichikdan yirik korxona sari evolyutsion o'sish nazariyasi: nazariy tahlil va amaliy asoslar, O'zbekiston sharoitidagi xususiyatlar	298
40.	Salimova Husniya Rustamovna	Markaziy Osiyo telekommunikatsiya operatorlarida texnik samaradorlikni DEA-CCR modeli orqali baholash: O'zbektelekom AK tajribasi	305
41.	Baltayev Jushkin Baltabayevich, Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich	Korporativ to'lov tizimlarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar: nazariya, amaliyot va O'zbekiston istiqbollari	310
42.	Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	Sanoat 4.0 sharoitida ishlab chiqarish korxonalarida yashil samaradorlik indikatorlari tizimini shakllantirish	319
43.	Yuldasheva Nazokat Muzaffar qizi	Soliq va moliyaviy instrumentlar orqali “yashil” innovatsiyalarni rag'batlantirish xorij tajribasining tahlili	326
44.	Safarov Xurshid Ravshan o'g'li	Kredit tashkilotlarida risklarni baholash va minimallashtirish	335
45.	Mirpo'latov Jahongir Muzapparovich	Ishlab chiqarish korxonalarida soliq qarzdorligi holati va uning hududlar kesimidagi tahlili	343
46.	G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi, Ma'murjonova Feruza Muzaffar qizi	Raqamli iqtisodiyot sharoitida kriptovalyutalar: moliyaviy imkoniyatlar va xavf-xatarlar tahlili	350
47.	Umarxodjayeva Muyassar Ganiyevna, Nishonova Ma'mura Yusupovna	Buxgalteriya axboroti strategik menejment qarorlarining legitimligi kafolati sifatida	355
48.	Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna	Xalqaro standartlarni o'rganish asosida O'zbekiston respublikasi budjet hisobi standartlariga uyg'unlashtirish zaruriyati	363
49.	Сафарова III.A.	Жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи амалиётига онд хориж тажрибалари хусусида	372
50.	Murodov Orif Jumayevich, G'ulomov Haydarbek Ilyos o'g'li	Agroklaster tizimida moliyaviy yuklamaning notekis taqsimlanishi: paxta tozalash korxonalari zimmasidagi tizimli bosim va uning sabablari	380
51.	Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna	Aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosati va uni bozor kapitallashuvi qiymatiga ta'siri masalalari	391
52.	Tilakov Navruz Maxmudovich	Raqamli moliyaviy xizmatlar asosida kichik biznes innovasion faoliyatini moliyalashtirish	400
53.	Рахимов Матназар Юсупович	Яшил кредитлар ва уларнинг банк рентабеллигига таъсирининг таҳлили	405
54.	Maxmudova Maftunaxon Shavkatjon qizi	Tijorat banklari faoliyatini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari	412
55.	Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi	Moliyaviy barqarorlik mazmun-mohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar	416
56.	Рустамова Шохида Тулкуновна	Олий таълим муассасаларини маблағ билан таъминлаш ҳолатининг таҳлили	424





57.	Allayarov Suxrob Rustamovich	Ekologik innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va yashil iqtisodiyotga o'tish istiqbollari	431
58.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini samarali tashkil etishda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlariga o'tishning ahamiyati	444
59.	Umarov Baxrom Boxodir o'g'li	Investitsion muhit va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili	449
60.	Ташматова Мухтабар Алишеровна	Қишлоқ хўжалигининг барқарор ривожланишини инвестициялаш фаолиятини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш	460
61.	Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Kuliboyev Azamat Shonazarovich	Davlat auditida sun'iy intellektdan foydalanish: ustun va xavfli jihatlar	466
62.	Yusufjonov Ravshanbek Rustamjon o'g'li	Agrar sohaga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirish yo'llari	474
63.	Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	Xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari	480
64.	Rasulov Dilshodbek Shuxratbek o'g'li	Abdulla Qahhor asarlarida iqtisodiy qiyinchiliklarning inson ruhiyatiga ta'siri	487
65.	Каримов Умрбек Жавлонбек угли	Отражение социально-экономических взглядов народа и экономической ситуации в произведениях мукими	494
66.	Mamatova Sevara Ilhom qizi	Bank xizmatlari samaradorligini oshirishda intellektual tizimlarning ahamiyati	502
67.	Khalilov Sherzod Akhmatovich	Integrating climate-related risks into financial reporting: A green accounting approach based on IFRS S2, IAS 36, IAS 37 and GHG emissions	511
68.	Ortiqov Qurbonnazar Omonovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning nazariy uslubiy asoslari	526
69.	Aminov Farrux Farxadovich	Innovatsiya loyihalarini moliyalashtirishda xorijiy tajriba va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari	531
70.	Baxramov Abdulaziz Baxtiyorovich	Kichik biznes sub'yektlarini moliyalashtirish muammolari va ularning yechimlari	542
71.	Хошимов Собир Муртазаевич	Хориж мамлакатларида асосий капиталга инвестицияларни молиялаштиришнинг манбалари таҳлили	552
72.	Bo'riboeva Zamiraxon Ravshan qizi	Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini baholashning metodologik yondashuvlari va ko'rsatkichlar tizimi	559
73.	Rahimov Akmal Matyaqubovich	Bank depozit portfeli barqarorligiga ta'sir etuvchi risk omillarini baholash va Stress-test modelidan foydalanish imkoniyatlari	566
74.	Isayev Husan Mansurovich	O'zbekiston respublikasida bevosita soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali budjet daromadlarini optimallashtirish yo'llari	577
75.	Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li	Tashabbusli budjetlashtirish doirasida loyihalarni shakllantirish, saralash va g'olib loyihalarni aniqlash amaliyotining tahlili	584
76.	Fozilchayev Shuhratjon Qobiljon o'g'li	Makroiqtisodiy noaniqliklar sharoitida investitsiya loyihalarining moliyaviy risklarini boshqarish strategiyalari	591
77.	Абдураимова Мафтунахон Ахматовна	Суғурта ташкилотларида ички назорат тизимини баҳолаш амалиёти	597
78.	Абидов Мансур Илхомжонович	Давлат харидларини амалга ошириш жараёнини назорат қилишнинг ўзига хос хусусиятлари	605
79.	Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	Mahalliy korporativ emitentlarning yevroobligatsiyalar emissiyasi va qarz instrumentining korxona moliyaviy barqarorligiga ta'siri	610
80.	Xusainov Xasan Baratovich	Ichki audit xizmatining budjet tashkilotlari faoliyatiga ta'sirini tahlil qilish va samaradorligini oshirish	616
81.	Qurbonov Shodlikbek Marksovich	Davlat tibbiyot tashkilotlarida daromadlarni hisobga olish mezonlarini belgilash va moliyaviy hisobotda aks ettirishni takomillashtirish	623
82.	Andokulov Tulkin	The role of cybersecurity in the digital economy: threats, stability model, and Cybersecurity Maturity Assessment	631
83.	Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning zamonaviy mexanizmlari	637





O‘ZBEKISTONDA MAXSUS IQTISODIY ZONALARGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Maxkamov Otabek Muxammadjonovich

Mustaqil tadqiqotchi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning zamonaviy mexanizmlari, ularning iqtisodiy mazmuni va amaliy ahamiyati tadqiq etilgan. Maxsus iqtisodiy zonalarining mamlakat investitsion muhitini yaxshilash, hududlarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish, yangi texnologiyalarni jalb qilish, eksport hajmini oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi roli yoritilgan. Tadqiqotda xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan soliq, bojxona va ma‘muriy imtiyozlar, infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash, “yagona darcha” tamoyili hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning institutsional mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, investitsion loyihalarini tanlash, moliyalashtirish va monitoring qilish tizimini raqamlashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilish va investitsiya risklarini kamaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston maxsus iqtisodiy zonalarining investitsion jozibadorligini yanada oshirish, xorijiy kapital oqimini diversifikatsiya qilish va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega loyihalarini ko‘paytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: maxsus iqtisodiy zonalar, xorijiy investitsiyalar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari.

MODERN MECHANISMS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS TO SPECIAL ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN

Maxkamov Otabek Muxammadjonovich

Independent Researcher,

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article examines modern mechanisms for attracting foreign investment to Uzbekistan's special economic zones, their economic content, and practical significance. It emphasizes the role of special economic zones in improving the country's investment climate, efficiently utilizing regional production potential, attracting new technologies, increasing exports, and creating new jobs. The study analyzes tax, customs, and administrative incentives created for foreign investors, infrastructure support, the one-stop shop principle, and institutional mechanisms for implementing investment projects. Particular attention is also paid to the digitalization of the system for selecting, financing, and monitoring investment projects, protecting investors rights, and mitigating investment risks. The study resulted in the development of scientific and practical proposals for further enhancing the investment attractiveness of Uzbekistan's special economic zones, diversifying foreign capital flows, and increasing the number of high-value-added projects.

Keywords: special economic zones, foreign investments, foreign direct investments, investment climate, investment attractiveness, investment attraction mechanisms.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В СПЕЦИАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗОНЫ УЗБЕКИСТАНА

Махамов Отабек Мухаммаджонович



*Независимый исследователь,**Ташкентский государственный экономический университет*

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные механизмы привлечения иностранных инвестиций в специальные экономические зоны Узбекистана, их экономическое содержание и практическое значение. Подчеркивается роль специальных экономических зон в улучшении инвестиционного климата страны, эффективном использовании производственного потенциала регионов, привлечении новых технологий, увеличении объемов экспорта и создании новых рабочих мест. В исследовании анализируются налоговые, таможенные и административные льготы, созданные для иностранных инвесторов, инфраструктурная поддержка, принцип «единого окна» и институциональные механизмы реализации инвестиционных проектов. Особое внимание уделяется также вопросам цифровизации системы отбора, финансирования и мониторинга инвестиционных проектов, защиты прав инвесторов и снижения инвестиционных рисков. В результате исследования разработаны научно-практические предложения по дальнейшему повышению инвестиционной привлекательности специальных экономических зон Узбекистана, диверсификации потоков иностранного капитала и увеличению числа проектов с высокой добавленной стоимостью.

Ключевые слова: специальные экономические зоны, иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, механизмы привлечения инвестиций.

Kirish.

Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga keng jalb etish mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maxsus iqtisodiy zonalar xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish, soliq va bojxona imtiyozlaridan foydalanish hamda zamonaviy infratuzilmaga ega loyihalarni amalga oshirish imkonini beruvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda ham maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish orqali hududlarning investitsion salohiyatidan samarali foydalanish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maxsus iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish, investorlar uchun institutsional, moliyaviy va infratuzilmaviy shart-sharoitlarni yaxshilash hamda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

Adabiyotlar sharhi.

Xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning maxsus iqtisodiy zonalar bo'yicha bergan ta'riflarini ko'rib chiqamiz. Jumladan, ularning mazkur iqtisodiy institutning mohiyati, asosiy xususiyatlari va iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatiga oid ilmiy yondashuvlarini tahlil qilamiz.

Thomas Farole fikricha, maxsus iqtisodiy zonalar — mamlakat hududida geografik hatdan chegaralangan, boshqa hududlardan farqli maxsus tartibga solish va iqtisodiy rejim amal qiladigan, investitsiya, savdo va sanoat faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qiluvchi hududlardir. Fikrimizcha, mazkur ta'rifda maxsus iqtisodiy zonalarning asosiy xususiyatlari, ya'ni hududiy chegaralanganlik, alohida huquqiy-iqtisodiy rejimning mavjudligi hamda investitsiya va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga yo'naltirilganligi o'zaro uyg'un holda ifodalangan. Shu jihatdan, maxsus iqtisodiy zonalarni mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishga xizmat qiluvchi alohida iqtisodiy hududlar sifatida baholash mumkin.

Gokhan Akinci fikriga ko'ra, maxsus iqtisodiy zonalar — mamlakat hududining aniq chegaralangan qismi bo'lib, unda biznes yuritish shartlari mamlakatning boshqa hududlariga





nisbatan qulaylashtirilgan va investorlar uchun maxsus imtiyozlar taqdim etiladi. Fikrimizcha, mazkur yondashuvda maxsus iqtisodiy zonalarining iqtisodiy mohiyati, avvalo, tadbirkorlik va investitsiya faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish orqali namoyon bo'ladi. Bunday zonlarda imtiyozli soliq va bojxona rejimlarining joriy etilishi, ma'muriy tartib-taomillarning soddalashtirilishi hamda investorlar uchun qo'shimcha qulayliklarning yaratilishi hududning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Douglas Zhihua Zeng fikricha, MIZlar sanoatlashtirish, eksportni rivojlantirish, xususiy sektorni kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun davlat tomonidan tashkil etiladigan maxsus hududiy siyosat vositasi sifatida qaraladi. Fikrimizcha, mazkur yondashuv maxsus iqtisodiy zonalarining mohiyatini davlatning strategik iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi hududiy mexanizm sifatida ochib beradi. Bunda MIZlarning asosiy vazifasi faqat investorlar uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratish bilan cheklanib qolmay, balki sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va xorijiy kapital oqimini ko'paytirish orqali mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy transformatsiyasiga ko'maklashishdan iboratdir.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiev, N.Muminovlarning fikricha, maxsus iqtisodiy zonalar – shunday geografik hududki, unda mamlakatda qabul qilingan xo'jalik faoliyati tartibiga qaraganda imtiyozli soliq to'lash tartibi joriy etiladi. Ushbu hududda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi bulib, mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan ma'lum imtiyozlar tizimi joriy etiladi. Fikrimizcha, mazkur yondashuvda maxsus iqtisodiy zonalarining iqtisodiy mohiyati, avvalo, alohida hududda imtiyozli xo'jalik yuritish shartlarini shakllantirish orqali tadbirkorlik va investitsiya faoliyatini rag'batlantirish bilan izohlangan. Bunda soliq imtiyozlari bilan bir qatorda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini maqbullashtirish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qulay institutsional muhit yaratish MIZlarning muhim xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Maxsus iqtisodiy zonalariga xorijiy investitsiyalar jalb etishni o'rgangan respublikamiz olimlaridan professor J.Karimqulovning ilmiy ishlarida ushbu “sanoat zonalarining investitsion faolligiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqilgan. Ushbu sanoat hududlarining investitsion faolligini oshirishda ularda beriladigan moliyaviy imtiyozlarni “vaqt omili”dan Hindiston tajribasidan kelib chiqib, “hudud omili”ga o'tkazish taklif etilgan”. Fikrimizcha, mazkur yondashuv maxsus iqtisodiy zonalarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda imtiyozlarning miqdori va amal qilish muddatidan tashqari, ularning hududiy xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Chunki investorning qaror qabul qilishida soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlar bilan bir qatorda hududning geografik joylashuvi, transport-logistika imkoniyatlari, ishlab chiqarish va muhandislik infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, xomashyo va mehnat resurslariga yaqinligi hamda tegishli bozorlarga chiqish imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

S.S.Bozarovning ta'kidlashicha, maxsus iqtisodiy zona – davlatning iqtisodiy va jo'g'rofiy jihatdan qulay hududida tashkil etiladigan, mamlakat iqtisodiyotini kompleks tarzda rivojlantiradigan va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini ta'minlaydigan, alohida imtiyozlar majmuini o'z ichiga olgan rejimga ega bo'lgan hamda chet el elementi bilan murakkablashgan turli xil huquqiy munosabatlar amalga oshiriladigan maxsus ajratilgan hududdir. Fikrimizcha, mazkur yondashuv maxsus iqtisodiy zonalarining iqtisodiy mohiyati bilan bir qatorda, ularning huquqiy va institutsional tabiatini ham keng qamrovda ochib beradi. Ayniqsa, MIZlarning iqtisodiy va geografik jihatdan qulay hududlarda tashkil etilishi investorlar uchun bozorlar, transport-logistika tarmoqlari va zarur resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi.

M.A.Raimjonova tomonidan “mamlakat hududida maxsus iqtisodiy rejim va ma'muriy boshqaruvga ega bo'lgan, davlat aralashuvi kamaytirilgan va ayni vaqtda uning nazoratidan butkul ozod etilmagan, balki, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyat yuritishi uchun mamlakatning boshqa hududlarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag'batlantirishlar beriladigan hudud – maxsus





iqtisodiy hudud”, deb ta’rif keltirilgan. Fikrimizcha, MIZlarning samarali faoliyat yuritishi uchun davlatning nazorat va tartibga solish funksiyalari bilan investorlar uchun yaratiladigan iqtisodiy erkinlik va rag’batlantirish mexanizmlari o’rtasida maqbul nisbatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv bir tomondan investorlarning manfaatlarini himoya qilsa, ikkinchi tomondan MIZlarning mamlakat iqtisodiy rivojlanish siyosatiga muvofiq faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Tahlil va natijalar.

MIZlar faoliyatining 2021–2025-yillardagi asosiy ko’rsatkichlari ularning iqtisodiy faolligi va rivojlanish sur’atlarini baholash imkonini beradi. Mazkur davrda ishlab chiqarish hajmi, asosiy kapitalga yo’naltirilgan investitsiyalar, yangi ish o’rinlari hamda qurilish ishlari sezilarli darajada oshgan. Shu bilan birga, korxonalarning moliyaviy holatini ifodalovchi foyda, debitor va kreditor qarzar ko’rsatkichlarida turlicha o’zgarishlar kuzatilgan. Ayniqsa, ishlab chiqarish va investitsiyalarning o’sishi MIZlarning hududiy iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini ko’rsatadi. Biroq qarzdorlik hajmining yuqori sur’atlarda ko’payishi moliyaviy barqarorlik masalasiga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Shuning uchun mazkur ko’rsatkichlar dinamikasini kompleks tahlil qilish MIZlar faoliyatining ijobiy va muammoli jihatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

MIZlar bo’yicha asosiy ko’rsatkichlarning umumiy dinamikasi⁹⁷

Ko’rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025	2021–2025 o’zgarishi
Ishlab chiqarish, mlrd so’m	18 704,2	27 252,1	37 769,2	44 182,5	61 823,4	3,31 marta
Asosiy kapital investitsiyalari, mlrd so’m	3 319,9	3 735,0	6 269,6	16 511,5	15 490,1	4,67 marta
Yangi ish o’rinlari, birlik	11 511	19 581	14 831	18 048	18 178	57,9 %
Yil boshidagi ish o’rinlari, birlik	30 320	35 859	45 626	49 949	52 796	74,2 %
Qurilish ishlari, mlrd so’m	31,4	63,3	194,1	198,2	246,5	7,85 marta
Foyda, mlrd so’m	540,3	2 081,5	1 177,4	1 745,5	364,2	—
Debitor qarzar, mlrd so’m	4 995,7	6 950,7	9 754,6	17 099,3	22 826,5	4,57 marta
Kreditor qarzar, mlrd so’m	5 843,1	8 060,0	10 759,5	24 816,9	27 923,2	4,78 marta

2021–2025-yillarda MIZlar faoliyatining asosiy ko’rsatkichlari umumiy jihatdan ijobiy dinamikani namoyon qilgan. Eng avvalo, ishlab chiqarish hajmi 18 704,2 mlrd so’m dan 61 823,4 mlrd so’m gacha oshib, 3,31 baravar ko’paygan. Bu MIZlarda ishlab chiqarish salohiyati kengaygani, yangi loyihalar ishga tushirilgani va mavjud korxonalar faoliyati faollashganidan dalolat beradi. Asosiy kapitalga investitsiyalar esa 3 319,9 mlrd so’m dan 15 490,1 mlrd so’m ga yetib, 4,67 baravar oshgan. Ayniqsa, 2024-yilda investitsiyalar 16 511,5 mlrd so’m ni tashkil etgani kapital qo’yilmalarining keskin jadallashganini ko’rsatadi.

⁹⁷ <https://stat.uz/uz/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.





Bandlik bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarda ham o‘shish mavjud. Yangi ish o‘rinlari soni 11 511 tadan 18 178 tagacha ko‘payib, 57,9 foizga oshgan. Yil boshidagi ish o‘rinlari esa 30 320 tadan 52 796 tagacha yetgan. Demak, MIZlarning yangi ish o‘rinlarini yaratish va mavjud bandlikni kengaytirishdagi roli kuchaygan. Qurilish ishlari hajmining 31,4 mlrd so‘mdan 246,5 mlrd so‘mgacha, ya‘ni 7,85 baravar oshishi ham infratuzilmaviy rivojlanish jarayonlari jadallashganini anglatadi.

Moliyaviy natijalarda esa barqaror o‘shish kuzatilmagan. Foyda 2022-yilda 2 081,5 mlrd so‘mga yetgan bo‘lsa, 2025-yilda 364,2 mlrd so‘mgacha qisqargan. Shu bilan birga, debitor qarz 4,57 baravar, kreditor qarz esa 4,78 baravar oshgan. Bu holat ishlab chiqarish kengayishi bilan bir qatorda hisob-kitoblar va aylanma mablag‘lar boshqaruvida muayyan muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, 2021–2025-yillarda MIZlarning ishlab chiqarish, investitsiya, bandlik va qurilish yo‘nalishlaridagi rivojlanishi ijobiy baholanadi. Ishlab chiqarishning 3,31 baravar, investitsiyalarning 4,67 baravar va qurilish ishlari hajmining 7,85 baravar ortishi MIZlarning iqtisodiy faolligi sezilarli kengayganini ko‘rsatadi. Biroq foydaning 2025-yilda keskin kamayishi hamda debitor va kreditor qarzlarning yuqori sur‘atlarda o‘shishi moliyaviy samaradorlikni oshirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli kelgusida investitsiya faolligini saqlab qolish bilan birga, korxonalar rentabelligini oshirish, debitor qarzlarni qisqartirish va kreditor majburiyatlarini samarali boshqarishga qaratilgan choralarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

2-jadval

Navoiy, Jizzax va Angren maxsus iqtisodiy zonalarining 2021–2025-yillardagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari⁹⁸

Hudud / MIZ	Yil	Sanoat mahsuloti (mln so‘m)	Asosiy kapital investitsiyasi (mln so‘m)	Ish o‘rinlari yil oxiri	Yangi ish o‘rinlari
Navoiy MIZ	2021	3 801 264,1	517 228,0	6 582	3 810
Navoiy MIZ	2022	4 678 980,7	655 195,9	7 222	2 294
Navoiy MIZ	2023	5 080 645,6	3 346 225,9	5 244	1 208
Navoiy MIZ	2024	5 749 819,7	1 852 162,0	5 277	1 711
Navoiy MIZ	2025	7 350 294,2	667 357,6	7 496	4046
Jizzax MIZ	2021	2 253 720,4	47 660,7	4 702	1 849
Jizzax MIZ	2022	3 258 359,9	73 249,1	5 663	3 892
Jizzax MIZ	2023	10 929 029,4	43 439,4	6 768	4 473
Jizzax MIZ	2024	14 114 118,6	1 046 373,7	9 175	3 407
Jizzax MIZ	2025	20 249 910,1	988 988,2	8 307	1978
Angren MIZ	2021	5 593 917,0	1 421 472,3	8 733	2 170
Angren MIZ	2022	8 380 688,0	996 553,7	9 710	3 422
Angren MIZ	2023	10 021 983,5	1 159 410,7	10 988	2 648
Angren MIZ	2024	10 258 501,5	1 257 024,8	13 452	3 465
Angren MIZ	2025	11 453 203,9	1 584 513,0	13 539	3370

Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) mamlakat hududlarida investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish, sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda hududlarning eksport salohiyatini oshirishda muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. O‘zbekistonda tashkil etilgan Navoiy, Jizzax va Angren maxsus iqtisodiy zonalarini ushbu yo‘nalishdagi eng muhim hududiy sanoat markazlaridan sanaladi. Mazkur zonalarining 2021–2025-yillardagi faoliyatini baholashda sanoat mahsuloti hajmi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, yil yakunidagi ish o‘rinlari soni va yangi ish o‘rinlari kabi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko‘rsatkichlar MIZlarning ishlab chiqarish salohiyati, investitsion jozibadorligi va bandlikka qo‘shayotgan hissasini kompleks baholash imkonini beradi.

⁹⁸ <https://stat.uz/uz/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.





2021–2025-yillarda uchta MIZ faoliyatida sezilarli oʻzgarishlar kuzatilgan. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish boʻyicha Jizzax MIZ eng yuqori oʻsish surʼatini namoyish etgan: mazkur koʻrsatkich 2021-yildagi 2 253 720,4 mln soʻmdan 2025-yilda 20 249 910,1 mln soʻmga yetib, qariyb 9 barobarga oshgan. Ayniqsa, 2023-yildan boshlab ishlab chiqarish hajmining keskin ortishi Jizzax MIZda yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi va sanoat faolligining jadallashganini koʻrsatadi. Angren MIZda sanoat mahsuloti 5 593 917,0 mln soʻmdan 11 453 203,9 mln soʻmgacha oshib, ikki barobardan koʻproq oʻsdi. Navoiy MIZda esa ushbu koʻrsatkich 3 801 264,1 mln soʻmdan 7 350 294,2 mln soʻmgacha yetdi.

Investitsiyalar dinamikasida Navoiy MIZ 2023-yilda 3 346 225,9 mln soʻmlik eng yuqori koʻrsatkichga erishgan boʻlsa, keyingi yillarda investitsiya hajmi pasaygan. Jizzax MIZda esa 2024-yilda investitsiyalar 1 046 373,7 mln soʻmga yetib, 2025-yilda ham 988 988,2 mln soʻmni tashkil qilgan. Angren MIZda investitsiyalar nisbatan barqaror oʻsib, 2025-yilda 1 584 513,0 mln soʻmga yetgan.

Bandlik koʻrsatkichlari ham ijobiy dinamikani aks ettiradi. Angren MIZda yil oxiridagi ish oʻrinlari 8 733 tadan 13 539 tagacha oshib, eng yuqori mutlaq oʻsishni qayd etdi. Jizzax MIZda ushbu koʻrsatkich 4 702 tadan 8 307 tagacha koʻpaygan. Navoiy MIZda esa 2023-yildagi pasayishdan soʻng 2025-yilda ish oʻrinlari 7 496 taga yetgan. Yangi ish oʻrinlari yaratish boʻyicha ham uchala hudud sezilarli natijalarga erishgan boʻlib, 2025-yilda Navoiy MIZda 4 046 ta yangi ish oʻrni yaratilgani ayniqsa eʼtiborlidir.

Umuman olganda, 2021–2025-yillar davomida Navoiy, Jizzax va Angren maxsus iqtisodiy zonalarida iqtisodiy faollikning umumiy oʻsish tendensiyasi kuzatilgan. Biroq rivojlanish surʼatlari hududlar kesimida sezilarli darajada farqlangan. Jizzax MIZ sanoat mahsuloti hajmining eng yuqori oʻsishi bilan ajralib turgan boʻlsa, Angren MIZ bandlik va investitsiyalar boʻyicha nisbatan barqaror natijalarni namoyish etgan. Navoiy MIZda esa sanoat ishlab chiqarishi muntazam oshgan hamda 2025-yilda yangi ish oʻrinlari yaratish koʻrsatkichi keskin yaxshilangan.

Tahlil natijalari MIZlarning hududiy iqtisodiy rivojlanish, sanoatni diversifikatsiya qilish va aholi bandligini taʼminlashdagi ahamiyati yuqori ekanini koʻrsatadi. Shu bilan birga, investitsiyalar dinamikasidagi yillik tebranishlar, ayrim davrlarda ish oʻrinlari sonining kamayishi kabi holatlar MIZlarda investitsiya loyihalarining uzluksizligini taʼminlash va mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish zarurligini koʻrsatadi. Kelgusida investitsiyalarni texnologik va yuqori qoʻshilgan qiymatli ishlab chiqarishlarga yoʻnaltirish ushbu zonalarining iqtisodiy samaradorligini yanada oshirishi mumkin.

Xulosa.

Oʻzbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotining investitsion jozibadorligini oshirish, hududlarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish hamda yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, maxsus iqtisodiy zonalarda yaratilgan soliq va bojxona imtiyozlari, infratuzilmaviy qulayliklar, maʼmuriy tartib-taomillarning soddalashtirilishi va investorlar uchun yaratilayotgan institutsional sharoitlar xorijiy kapital oqimini ragʻbatlantirishning asosiy omillari hisoblanadi.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, investorlarga xizmat koʻrsatish jarayonlarining murakkabligi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi va investitsiya loyihalarini uzoq muddatli moliyalashtirish mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi kabi muammolar mavjud. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun “yagona darcha” tamoyilini toʻliq raqamlashtirish, investorlarga individual xizmat koʻrsatish tizimini kuchaytirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish hamda zamonaviy logistika va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish maqsadga muvofiq.





Bundan tashqari, maxsus iqtisodiy zonalarda xorijiy investitsiya loyihalarini tanlashda loyihaaning eksport salohiyati, texnologik darajasi, yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyati, mahalliy lashtirish darajasi va ekologik samaradorligini hisobga olish zarur. Natijada xorijiy investitsiyalar hajmini ko‘paytirish bilan bir qatorda, ularning iqtisodiy samaradorligi va hududiy rivojlanishga ta‘sirini ham oshirish mumkin. Umuman olganda, zamonaviy investitsiya mexanizmlarini kompleks takomillashtirish O‘zbekiston maxsus iqtisodiy zonalarining xalqaro investitsiya oqimlaridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farole T., Akinci G. (eds.). Special Economic Zones: Progress, Emerging Challenges, and Future Directions. Washington, DC: World Bank, 2011.
2. Farole, T., Akinci, G. (eds.). Special Economic Zones: Progress, Emerging Challenges, and Future Directions. Washington, DC: World Bank, 2011, p. 3.
3. Zeng D. Z. Special Economic Zones: Lessons from the Global Experience. PEDL Synthesis Paper Series No. 1, 2016.
4. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. –T.: Moliya, 2010. 180-bet
5. Karimqulov J. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo‘nalishlari. 08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit» Iqtisodiyot fanlari doktori (DSs) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent – 2019. 244 b
6. Bozarov S.S. O‘zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalarida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlari bo‘yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent., 2018.
7. Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. – T.: “Extremum-press” nashriyoti, 2013. – B. 11.
8. <https://stat.uz/uz>

